

KO'ZI OJIZ BO'LGAN BOLALARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'RGANISH

*Xonimqulova Mashhura Sherzod qizi**Rahmonova Gulxan Mirali qizi**JDPU Logopediya yo'nalishi 3-kurs talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'zi ojiz bolalarning pedagogik- psixologik tavsifi, va ularni o'qitish hamda hozirgi kunda ularga tashkil etilayotgan o'quv muhiti va imkoniyatlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ko'zi ojiz bola, psixologik ta'sir, pedagogik tavsif, tiflopedagog, ko'rish analizatori, ko'ruv o'tkirligi, Inklyuziv ta'lim.

Annotation: This article discusses the pedagogical and psychological characteristics of blind children, their education, and the educational environment and opportunities currently being created for them.

Keywords: blind child, psychological impact, pedagogical description, typhlopedagogue, visual analyzer, visual acuity, inclusive education.

Ko'rish nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarni, shaxslarni ko'rlikning qachon yuz berganligini hisobga olib ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1.Ko'r tug'ilganlar va uch yoshgacha turli salbiy taassurotlar natijasida ko'zi ko'r va zaif bo'lib qolganlar.
- 2.Uch yoshdan keyin ko'rish nuqsonini orttirganlar.

Ko'rish nuqsonli shaxslarni bunday guruhlarga bo'lishdagi asosiy mezon ularda ko'zining sog'lomlik davrida (agar shunday davr bo'lgan bo'lsa) bola qanchalik hayot tajribasi, ko'ruv tasavvurlari to'plaganligi e'tiborga olinadi. Birinchi guruhga asosan nutq paydo bo'lguncha ko'zi ko'r bo'lgan va zaif ko'ruvchilar kiritilgan bo'lib, ularda ko'ruv tasavvurlari va tajribasi yo'q yoki juda kam darajada. Ikkinchi guruhga uch yoshdan keyin ko'zi ko'r va zaif ko'ruvchilar kirib, ularda ozmi-ko'pmi ko'ruv obrazlari va ko'ruv xotirasi mavjud bo'ladi. Yana shuni ko'rsatib o'tish kerakki, kech ko'r bo'lganlarning ko'ruv tasavvurlari sog'lomlarnikidan farq qilmaydi. Sog'lom ko'zning ko'ruv o'tkirlilik birligi tibbiyotda 1,0 deb qabul qilingan. Ammo, ko'ruv o'tkirligi 1,5: 2,0 birlikdagi kishilar ham uchraydi. Ko'rlar yoki total ko'rlarga hech qanday yorug'likni sezmaydiganlar 0,04 gacha kiradi (salgina yorug'likni sezuvchilar). Shuningdek, qisman ko'rlar yoki porsial ko'rlar (yorug'lik va qorong'ulikni farqlovchilar). Shaklni farqlovchilarning ko'rish o'tkirligi 0,005 dan 0,04 gacha farqlanadi. Ko'rish maydonining torayishi ham ko'rlik yoki zaif ko'rishga olib kelishi mumkin.

Ko'rishida nuqsoni bor bolalarning atrof-olamni ko'rib idrok qilishi chegaralangan, ular predmetlarni yaxshi ko'ra olmaydi. Bolalarda ko'rish qobiliyatining buzilishi turli sabablar orqali kelib chiqadi. Birinchidan, ona homilasining yaxshi rivojlanmaganligi bo'lsa, ikkinchidan bugungi kunimizda juda katta dolzarb muammo bo'lib hisoblangan narkomaniya, chekish, spirtli ichimliklarning ko'p iste'mol qilinishidir. Uchinchidan, bolaning kichikligida har xil yuqumli kasalliklar bilan og'rish. Masalan, traxoma, chechak, sozak, ko'z tuberkulyoz bilan kasallanish

orqali qizamiq, skarlatina va boshqa shu singari bolalarga xos yuqumli kasalliklar orqasidan ko'rib qolish mumkin. Bolada ko'rishning zaiflanishi turli darajada namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalar, ayniqsa ko'rish organining o'zgarishi tug'ma bo'lgan bolalar tamomila ko'rib qoladi. Yoki ularning, ko'rish qobiliyati shu qadar kamayadiki, bunday bolalar faqat ko'rib qolish maktabidagina sezgi zamirida Brayl sistemasi asosida o'qish mumkin (ko'rish qobiliyati keskin kamaygan bolalar qatoriga faqat yorug'likni sezadigan yoki barmoqlarni yuziga yaqin keltirib ko'rsatilgandagina sanay oladigan yoki ko'rish qobiliyati 0,05 gacha bo'lgan bolalar kiradi). Bunday bolalar, odatda ommaviy maktabga olinmaydilar, Ko'rib qolish maktabiga ko'zi zaif bolalar ayrim hollardagina yuboriladi, bunday bolalarda ko'z kasalligi og'irlashib borayotgan bo'ladi va ularni ko'rish qobiliyatining qolgan qismini saqlab qolish maqsadida Brayl sistemasi asosida o'qitish foydalidir. Ularning ta'lim tizimining o'ziga xos murakkabligi ham shundadir. Ko'zi ojiz bolalarga ta'lim berish jarayonida zarur shart-sharoitlar yetarligiga alohida e'tibor berish lozim. Ko'ruv idroki uchun binoning yetarlicha yoritilishi, bolalarni ko'rish darajasidan kelib chiqqan holda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, ularning partada va stol atrofida to'g'ri joylashishi, dars davomida korreksion mashg'ulotlardan foydalanish zarur shart-sharoitlardan hisoblanadi. Jamiyatimizda umumta'lim maktablarda o'qiydigan o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar ham borki, ular ta'limini samarali tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ta'limini sifatli yo'lga qo'yish va maktab internatlarini o'quv qurollari, jihozlar va darsliklar bilan ta'minlash eng muhim masalalardan hisoblanadi. Ko'zi ojiz bolalarning ham ta'limi sog'lom bolalar ta'limi singari maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi. Aynan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955 son (<https://lex.uz/docs/3923110>) "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish bilan birga rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish, ularni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi " Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi 391- son qarorining (<https://lex.uz/docs/4333062>) 3-ilovasida ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibi haqida belgilab qo'yilgan. Shu nizomga muvofiq, aralash turdagi mujassam nuqsonli bolalar ta'limiga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan. Mazkur tashkilotlardagi o'qitishning asosiy muammosi ta'lim beruvchi kadrlar – tiflopedagoglarning yetishmasligidir. Bundan tashqari, yuqori maktabgacha yoshdagi bolalar Brayl yozuvini o'rganmasligi, bolalar yettita korreksion mashg'ulotlarning (logopediya mashg'uloti; predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish; ijtimoiy maishiy hayotga yo'naltirish; teri tuyishni va mayda qo'l matorikasini rivojlantirish; davolash gimnastikasi; ritmika; mo'ljal olish va harakatlanish) har biriga alohida yo'naltirilmaganligi ham tiflopedagogikaning eng asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ko'zi ojiz bolalarni o'qitishda birgina maktabgacha ta'lim tashkilotlarida emas, balki maktabda ham bir necha muammolarga duch kelish mumkin. Birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim muassasasi dasturining maktab o'quv dasturi bilan uzviy bog'lanmaganligi, ya'ni dasturlararo aloqalilikning yo'qligidir. Bu albatta ko'rishida nuqsoni bor bolalarni o'qishida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki bola bir muhitdan umuman boshqa yangicha muhitga o'tganda uning psixologiyasida o'zgarishlar kuzatiladi va yangi muhitga ko'nikish uchun ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi. Bu o'quvchilarning ta'lim va tarbiya jarayonida o'z aksini topadi. "Nurli maskan" maktab internatlaridagi keyingi

muammo ko'rishida nuqsoni bor o'quvchilar foydalaniladigan yozuv pribori, yozuv grifili, sochma alifbo, bo'rtma nuqtali chizg'ichlar va boshqa tiflo o'quv quollarining Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Koreya hamda Germaniya singari xorijiy davlatlardan bir qancha muammolar asosida keltirilishidir. Tabiiyki, o'zimizda ishlab chiqarilmagan mahsulotlar chet eldan olib kelingandan so'ng uning qiymati ham ko'proq summani tashkil etadi. Ma'lumki, "Nurli maskan" maktab internatlarida tahsil oluvchi o'quvchilarning o'quv quollari davlat tomonidan ta'minlanadi. Yuqoridagi muammo esa davlat iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi " O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712 – son (<https://lex.uz/ru/docs/4312785>) Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-son qaror (<https://lex.uz/docs/5044711>)qabul qilindi. Bu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 12-oktabrda 638-sonli (<https://lex.uz/ru/docs/5679836>) qarorni imzoladi. Mazkur nizom umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibini belgilaydi. maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim bu -davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Jamiyatda nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish va ularga yordam berishdan iborat. Qolaversa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'nggi 2024-yilda davlat rahbari nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilishga intilishini qo'llabquvvatlash yuzasidan topshiriqlar beradi qolaversa, nogironligi bo'lgan shaxslarning reabilitatsiyasi va protez olishi uchun imkoniyatlar kengaytiriladi va 2025- yilga qadar inklyuziv ta'lim maktablarning 50% ini qamrab oladi. Prezidentning 18.04.2022 yildagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabinternatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish hamda qo'llabquvvatlash bo'yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni Ichki ishlar vazirligiga birlashtirish hamda ularni "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari deb nomlash nazarda tutilgan. Hujjat bilan o'rnatilgan tartibga muvofiq 2022/2023 o'quv yilidan boshlab "Nurli maskan" maktablarining Brayl yozuvidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar, badiiy hamda bolalar uchun mo'ljallangan adabiyotlar, turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoji har olti oyda o'rganiladi va shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: Barkamol fayz media, 2017

2.Sunnatilla Dangalov (2010). Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Tavsiyanoma.

3.«MAXSUS PEDAGOGIKA: MUAOMMO VA YECHIMLAR» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman MATERIALLARI 21-aprel 2023-yil .

4.INKULYUZIV TALIM ISTIQBOLI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMAN 2024 yil 15may.